MARKAZIY OSIYO HUDUDIDAGI IJTIMOIY-MADANIY ALOQALAR: QADIM VA ZAMONAVIYLIK NIGOHIDA

Salimov Yusufjon G‘afurjonovich
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Samarqand filiali dotsenti, sots.f.n
Elektron pochta: yusufsalimov45@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarixning turli taraqqiyot bosqicharida Markaziy Osiyo hududidagi ijtimoiy-madaniy aloqalarning tarixiy, tadrijiy evolyusiyasi, tinchlik va barqarorlikni ta’minlashda qo‘shnichilik munosabatlarining o‘ziga xos jihatlari, millatlararo munosabatlarni takomillashtirishdagi o‘zaro hamkorlik aloqalarini yuqori bosqichga ko‘tarishga qaratilgan chora-tadbirlari, ijtimoiy-madaniy aloqalarni mustahkamlash, muammolarni bartaraf etish borasidagi integratsiyasi hamda ustuvor vazifalar borasidagi fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: globallashuv, svilizatsiya, ijtimoiy munosabatlar, tolerantlik, qadriyat, barqarorlik, integratsiya.

Аннотация. В данной публикации рассматриваются вопросы историко-эволюционного развития социально-культурных связей в Центральноазиатском регионе на разных этапах истории. Особое внимание уделено специфике добрососедства как фактора обеспечения мира и стабильности, комплексу мер по выведению межнационального сотрудничества на качественно новый уровень, а также интеграционным процессам и ключевым задачам, направленным на укрепление социокультурного взаимодействия и преодоление возникающих вызовов.

Ключевые слова: глобализация, цивилизация, общественные отношения, толерантность, ценность, стабильность, интеграция.

Abstract. This publication examines the issues of historical and evolutionary development of socio-cultural relations in the Central Asian region at different stages of history. Particular attention is paid to the specific nature of good-neighborliness as a factor in ensuring peace and stability, a set of measures to take interethnic cooperation to a qualitatively new level, as well as integration processes and key tasks aimed at strengthening socio-cultural interaction and overcoming emerging challenges.

DOI: 10.5281/zenodo.24240486

Keywords: globalization, civilization, social relations, tolerance, value, stability, integration.

Markaziy Osiyo hududidagi qadimiy va hozirgi zamon madaniyati jahon madaniyati tarixida muhim o‘rin tutadi. Markaziy Osiyoning serhosil vodiysi, cho‘l va dashti, tog‘larida yashovchi aholining o‘ziga xos turmush sharoitidagi farqlar turli xo‘jaliklarning ertaroq paydo bo‘lishi o‘ziga xos madaniyatlar shakllanishiga olib keldi. Bu jarayon yaqin qo‘shnichilik munosabatlari asosida sodir bo‘lib, hududda istiqomat qilayotgan qabila va xalqlarning iqtisodiy va madaniy aloqalari tufayli taraqqiyotning ertaroq boshlanishiga imkon yaratdi. Ushbu hududda eng qadimgi davrlardan dehqonchilik, chorvachilik va tog‘ ovchi qabilalari o‘rtasidagi mahsulot ayirboshlash xalqlarning iqtisodiyotida katta ahamiyatga ega bo‘lib, keyingi davrlarda ham u uzoq saqlanib qoldi. Halqlarning turmush tarzi va xo‘jalik faoliyatidagi farqlanishi bilan bir qatorda mintaqa xalqlarining etnik va tillardagi yaqinligi uyg‘unlashib borgan. Markaziy Osiyo xalqlarining kuchli iqtisodiy aloqalari, etnik va til birligi ularning bir-biridan ayricha yashashiga yo‘l qo‘ymadi.

O‘rta Osiyo va Qadimgi Sharq dunyosi o‘rtasidagi madaniy ta’sir va aloqalar tosh davridayoq boshlangan. O‘rta Osiyoning janubiy va markaziy hududlarining Qadimgi Sharq sivilizatsiyalari markazlari bilan o‘zaro madaniy muloqoti yangi tosh davrida boshlanib, eneolit va bronza davrida o‘zining rivojlangan pallasiga kirdi. O‘rta Osiyoning janubiy viloyatlari uzoq davom etgan bu davr davomida Sharq sivilizatsiyasining ilk o‘choqlaridan kelayotgan iqtisodiy va texnologik ta’sir (sug‘orma dehqonchilik va o‘troq makonlarning paydo bo‘lishi, hunarmandchilikda kulolchilik charxining joriy etilishi, mis va bronza metallurgiyasining boshlanishi, ilk shaharsozlik madaniyati va davlat boshqaruvi asoslarining shakllanishi) doirasida bo‘lib kelishdi [1].

Markaziy Osiyoning qadimgi davr va o‘rta asrlardagi madaniy aloqalari tarixining ilk, qadimgi va o‘rta asrlar davri bosqichlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Tadqiqotchilar ilk bosqich eng qadimgi davrdan boshlab mil. avv. I ming yillik boshlarigacha, qadimgi davr bosqichi ahamoniylar davridan ilk o‘rta asrlargacha davom etganini, o‘rta asrlar bosqichi esa ilk va rivojlangan o‘rta asrlar, Amir Temur va temuriylar davri hamda so‘nggi o‘rta asrlar davrlariga bo‘linishini qayd etadilar [2].

Sharqning klassik madaniyati orasida Markaziy Osiyo Qadimgi madaniyati ajralib, o‘ziga xos ko‘rinishda shakllandi. Dastlab, bu madaniyatda ikki xil madaniyat aralashib ketadi: ko‘chmanchilik va ibtidoiylik olami hamda sivilizatsiya olami; bu yerdagi qadimgi madaniyatlarga xos madaniyatlarning o‘zaro muloqotiga aks ta’sir ko‘rsatgan “o‘zining betakrorligi” haqidagi tasavvur shakllanmoqda.

Markaziy Osiyoning o‘troq dehqonchilik va ko‘chmanchi xalqlarida ancha-muncha farqlar bo‘lishiga qaramasdan ilgaridan yaqin munosabatlar o‘rnatilgan. Markaziy Osiyo madaniyatining o‘ziga xosligining ikkinchi jihati mintaqaning o‘ta qulay jug‘rofiy o‘rnashganligi bilan bog‘liq. Mintaqa Mesopotamiya, Hindiston va Xitoy kabi uchta buyuk Sharq sivilizatsiyasi bilan bevosita chegaradosh bo‘lib, Farb sivilizatsiyasiga xos beshinchi-Gresiya va Rim bilan aloqada rivojlangan. Bunday aloqalarning muqarrarligi tufayli Markaziy Osiyo madaniyati Sharq va Farb o‘rtasida vositachilik missiyasini bajarishiga sabab bo‘ldi, ya’ni iqtisodiy sohalarda eng avvalo xalqaro savdoda va madaniy sohalarda ham Markaziy Osiyo Farb va Sharq o‘rtasida bog‘lovchi ko‘prik vazifasini bajardi.

Mintaqa orqali katta bosqinchilik yurishlari natijasida, xalqlarning ko‘chishlari yuz bergan bo‘lib, bu Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi davomida bir necha bor madaniyatni sezilarli o‘zgarishlarga olib keldi. Markaziy Osiyo xalqlarining musiqa va raqs san’ati qadim asoslarga ega bo‘lib, bu haqda musiqa asboblarining sopol, suyak va boshqalardan ishlangan nusxalari, ayrim badiiy bezaklar va devoriy tasvirlardagi ma’lumotlar va musiqa ilmiga bag‘ishlangan maxsus risolalar dalolat beradi. Qadimgi davrda va o‘rta asrlarda mintaqamizning turli hududlarida musiqa va ashulla hamda raqs san’atidagi o‘ziga xos yo‘nalishlar uzil-kesil shakllandi. Mintaqa ijtimoiy madaniy hayotida katta o‘rin tutgan bu san’at yutuqlari mintaqa tarixiy-madaniy viloyatlarining bir-biri bilan hamda qo‘shni xalqlar bilan madaniy aloqalar asosida rivojlanib kelgani e’tiborga loyiqdir. Xususan, ilk o‘rta asrlarda O‘rta Osiyo musiqa asboblari, raqs san’ati Xitoyda katta e’tibor qozongani [3].

Umuman olganda, O‘rta Osiyoning turli tarixiy-madaniy viloyatlari tarixning eng qadimgi davridan boshlab o‘zaro va qo‘shni xalqlar bilan qalin madaniy munosabatda bo‘lib keldilar. Bu madaniy aloqalar ijtimoiy-iqtisodiy hayotning turli sohalaridagi hamkorlik, turli texnologik yutuqlarni keng miqyosda o‘zaro almashish, savdo-sotiq va elchilik munosabatlari, hunarmandchilik, me’morchilik, haykaltaroshlik, tasviriy san’at va madaniyatning boshqa sohalaridagi o‘zaro ta’sir, diniy-falsafiy qarashlar va ahloqiy mezonlar almashinuvi, ma’lumotlar, yangiliklar va ilm-fanning turli sohalaridagi hamkorlik, ishlab chiqarishning turli sohalaridagi texnologik yangiliklarning, yozuv va numizmatik jarayonlarning tarqalishi va boshqa ko‘rinishlarda amalga oshirilib kelindi. Bu jihatdan mintaqaning qadimgi yo‘llari, ayniqsa Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab amalga oshirilgan madaniy muloqotning ahamiyati nihoyatda katta bo‘ldi. Mintaqaning asosiy karvon yo‘llaridagi savdo karvonlari tarkibida hunarmandlar, olimlar, shoirlar va musiqachilar ham bor edi. Tadqiqotchilar bu jihatdan ilk o‘rta asrlarda mintaqa xalqlari, xususan, sug‘diylarning sharqning ulkan xududida turli madaniy an’analar va dinlar (zardushtiylik, buddizm, nasroniylik, moniylik)ni yoyish va joriy qilishda ham katta

o‘rin tutganligini, shu bilan birga bu o‘zaro aloqalar bir tomonlama bo‘lmasdan, madaniy ta’sir Sharqdan G‘arbga – Xitoydan O‘rta Osiyoga, Eronga, Old Osiyoga ham tarqalganini muhim ahamiyatga egadir [4].

Temur va Temuriylar davlati deyarli bir yarim asr Osiyo, ayniqsa, Markaziy Osiyo tarixida nihoyatda ko‘p, serqirra, rang-barang madaniy-ma’naviy boyliklarni yaratishga, xalq talantlari uchun imkoniyat yarataolganligi, turkiy xalqlar madaniyati tarixida tamoman yangi, uzoq asrlarga ozuqa bergan qatlamlar, yangi sahifalar vujudga keltirgani bilan mashhurdir.

XIV asrning ikkinchi yarmidan boshlab Movarounnahr va Xurosonda ichki va tashqi savdo ravnaq topa boshladi. Samarqand qadimdan Sharqning savdo markazi bo‘lib, bu yerdan boshqa mamlakatlarni bog‘lovchi “Ipak yo‘li” o‘tar edi. Ayniqsa, Hindiston, Xitoy, Rusiya, arab mamlakatlari bilan savdo aloqalarini o‘rnatilishi Temur davlatining iqtisodiy qudratini mustahkamlashga xizmat qildi. Amir Temur savdoning rivojiga, karvon yo‘llarini yaxshilash, ularni turli talon-tarojlardan himoya qilish, chetdan keltiriladigan mollarga solinadigan soliqlarni tartibga solish, savdogarlarga imkoniyatlar tug‘dirish ishlariga katta e’tibor bergan edi. Bularning barchasi ishlab chiqarishning rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi va moddiy boyliklarning ko‘payib borishiga olib keldi. Bu haqda Temur “Tuzuklar”da shunday degan edi: “…Agar kasbu hunar va ma’rifat ahllaridan bo‘lsa, bundaylarga saltanat korxonalaridan yumush berilsin. Bulardan boshqa bilagida kuchi bor faqir miskinlar esa o‘z ahvoli va kasbu koriga qarab ish tutsinlar. …Sarmoyasi qo‘lidan ketib qolgan savdogarlarga o‘z sarmoyasini qaytadan tiklab olish uchun xazinadan yetarli miqdorda oltin berilsin. Dehqonlar va raiyatdan qaysi birining dehqonchilik qilishga qurbi yetmay qolgan bo‘lsa, unga ekin-tikin uchun zarur urug‘ va asbob tayyorlab berilsin. Agar fuqarodan birining uy-imorati buzilib, tuzatishga qurbi yetmasa, unga yordam berilsin”[5].

Ta’kidlash joizki, Markaziy Osiyo nihoyatda boy tarixga va madaniy merosga ega bo‘lgan insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimiy beshiklaridan biridir. Mintaqaning “Buyuk ipak yo‘li”ning markazida joylashganligi, va unda yashovchi xalqlar Sharq va G‘arb o‘rtasidagi xalqaro savdo, ilmiy-fan yutuqlari va madaniyatlarining almashinuvini ta’minlovchi o‘ziga xos muhim bog‘lovchi rolini amalga oshirgan. Mintaqaning beshta mamlakati - Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston o‘z tarixi, madaniyati va ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida ko‘p uzviy o‘xshashliklarga ega bo‘lib, tarixan yagona ilm-fan va madaniy makon sifatida shakllangan [6].

Darhaqiqat, bugun O‘zbekiston mintaqa miqyosida faol tashqi siyosat olib borib, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirmoqda.

Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasi 76-sessiyasidagi nutqida, “Biz Markaziy Osiyo mintaqasida o‘zaro hamjihatlik va hurmat, yaqin qo‘shnichilik va strategik sheriklik ruhidagi mutlaqo yangi siyosiy muhitni mustahkamlab bormoqdamiz. Bizning asosiy maqsadimiz – Markaziy Osiyoni farovon va barqaror rivojlanayotgan, ishonch va do‘stlik makoniga aylantirishdir”, deb ta’kidlagan edi. Qolaversa, jahon siyosatshunosligida “Markaziy Osiyo ruhi” degan ibora paydo bo‘ldi. U mintaqaviy hamkorlikning o‘zaro ishonch va hamjihatlikka asoslanganini ifoda etadi. Keyingi yillarda jahonda kechayotgan o‘ta ziddiyatli vaziyat chuqurlashib borishi va yangi tartibotlarni vujudga keltirib chiqarishi bilan, bir vaqtda yangi istiqbolli imkoniyatlar vujudga kelmoqda. Bunday sharoitdan yangi rivojlanish tendensiyalari va trendlari asosida vujudga kelayotgan xalqaro tartibotlarda o‘zini manfaatlarini himoya qilishni zamonaviy mexanizmlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Shunday mexanizmlardan biri bu mintaqalararo aloqalarni chuqurlashtirish va takomillashtirish bo‘lmoqda.

2016-yildan boshlab bu yo‘nalishda yangicha yondashuvlar, muammolarni bosqichma-bosqich, amaliy sa’y-harakatlar asosida hal qilishga intilish vujudga keldi. O‘zbekistondagi ichki va tashqi siyosatdagi ochiqlik, innovatsiya va iqtisodiy sohadagi liberallashtirish jarayonlari, yangi renesans g‘oyasining shakllana boshlanishi tashqi siyosatda ham yangi tendensiyalarni keltirib chiqardi. Markaziy Osiyo davlatlari bilan o‘zaro aloqalarni barcha yo‘nalishlarda, shu jumladan, davlat rahbarlarining muntazam uchrashuvlarini o‘tkazish, savdo va sarmoyaviy hamkorlikning doimiy o‘sishi, transport sohasidagi o‘zaro aloqalar muhim tendensiyaga aylandi. Mintaqaviy hamkorlikda parlament diplomatiyasining tobora rivojlanib borishi ham o‘ziga xos yangi institut sifatida takomillashib boroqda. Mintaqa davlatlari parlamentlari o‘rtasida aloqalar paydo bo‘ldi. Bu shakldagi o‘zaro aloqalar mintaqaviy hamkorlikni kengaytirishda parlamentlar ishtirokini yanada oshirishga qaratilgan. Qo‘shni davlatlar bilan uzoq vaqtdan buyon yechilmay qolayotgan va boshqa amaliy aloqalarga to‘sqinlik qilib kelgan cheraga masalalarini hal qilish bo‘yicha erishilgan natijalarni strategik ahamiyatga ega bo‘lmoqda bu borada chegara masalalarini siyosiylashtirishga va salbiy tendensiyalar vujudga kelishi oldi olindi.

Xulosa: Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Markaziy Osiyo hududidagi ijtimoiy-madaniy aloqalarni har tomonlama mustahkamlash mintaqaviy tashqi siyosat – xavfsizlik, rivojlanish kafolati bo‘lib qolmoqda. Tashqi siyosatdagi izchillik, pragmatizm va konstruizm, har qanday sharoitda davlat manfaatlarini himoya qilish strategiyasi, izchillik va ochiqlik tufayli amaliy mintaqaviy ahamiyatga ega natijalarga erishilishini taqozo etadi. Tashqi siyosiy kun tartibidagi barcha tendensiyalarni mohirlik bilan anglash va milliy manfaatlarni hisobga olish asosida

qo‘shnilar bilan butunlay boshqa mintaqaviy muloqotni o‘rnatish strategiyasi – yangi mintaqaviy diplomatiya O‘zbekistonning qiyofasiga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mavlonov O‘., Maxkamova D. Madaniy aloqalar va savdo yo‘llari. –B. 13.

2. Mavlonov O‘., Maxkamova D. Madaniy aloqalar va savdo yo‘llari –T.: Akademiya, 2004. –B. 12-13; Maxkamova D. Uzbekistan v sistemы mejdunarodnыx kulturnыx svyazey (osobennosti i zakonamernosti istoricheskogo razvitiya): Avtoref.diss... kand. ist. Nauk. –T., 2005.

3. 19. Pugachenkova G.A., Rempel L.I. Istoriya iskusstva Uzbekistana. –M., 1965; Malkeyeva A.A. Znacheniye Velikogo shelkovogo puti v rasshirinii mejdunarodnыx muzыkalnыx svyazey // Na Sredneaziatskix trassax Velikogo shelkovogo puti. Ocherki istorii i kulturы. –Tashkent: Nauka, 1990. –S. 39-59.

4. Rtveladze E.V. Velikiy shelkovыy put. –T., 1999; O‘sha muallif. Sivilizasii, kultura, gosudarstvennosti Syentralnoy Azii. – T., 2005.

5. “Temur tuzuklari”. -Toshkent, 1991, 66–67-betlar.

6. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T., 2000. -B. 47.